

“Berilgan shartlar bo'yicha chastotalar polosasi (nominali)ni avtomatlashtirilgan tarzda izlash” xizmati reglamenti

Xizmat tavsifi

O'zbekiston Respublikasida va/yoki Xalqaro aloqa ittifoqi (XEI)ning 1-rayonida radiochastota polosalari (nominallari)ni taqsimlash to'g'risidagi ma'lumotnoma axborotni taqdim etish.

O'zbekiston Respublikasining Chastotalarni taqsimlash jadvali O'zbekiston Respublikasi hududida radiochastota spektridan foydalanish sohasida me'yoriy hujjat hisoblanadi va O'zbekiston Respublikasi radioxizmatlari o'rtasida radiochastota polosalarini taqsimlash milliy rejasi (tartibi)ni ifoda etadi.

O'zbekiston Respublikasining Chastotalarni taqsimlash jadvaliga XEIning Butunjahon radioaloqa konferensiyalari qarorlarini inobatga olgan holda qo'shimcha va o'zgartishlar muntazam ravishda kiritib boriladi.

O'zbekiston Respublikasining Chastotalarni taqsimlash jadvali Radiochastotalar bo'yicha respublika kengashi ishchi organi – O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi saytida doimiy ravishda chop etiladi.

O'zbekiston Respublikasining Chastotalarni taqsimlash jadvali bilan qulay tanishib chiqish maqsadida «Berilgan shartlar bo'yicha radiochastota polosalarini/nominallarini izlash» xizmati ishlab chiqilgan va amalga kiritilgan.

Mazkur xizmat quyidagi mezonlar bo'yicha izlashni amalga oshirish uchun vositalar to'plamini o'z ichiga oladi:

chastotalar diapazoni, radioxizmatlar, chastota polosalaridan foydalanish toifasi, hudud (O'zbekiston Respublikasi va/yoki XEIning 1-rayoni).

Xizmat ko'rsatish faoliyati sohasi

Radiochastotadan foydalanish (radioaloqa, radionurlanishlar)

Xizmatdan foydalanuvchilar toifasi

Yuridik va jismoniy shaxslar.

Tashkilot

O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi

Bog'lanish uchun

Toshkent sh., 100047, Amir Temur shoh ko'chasi, 4, 3-blok.

Telefonlar: 238 4324, 238 4179, 238 4311, 238 4350, faks 2384324, e-mail: orirchs@mitc.uz

Xizmatdan foydalanish uchun kerakli bo'lgan hujjatlar

Xizmatdan foydalanish uchun hech qanday hujjat talab qilinmaydi.

Xizmat sahifasi O'zbekiston Respublikasining Chastotalarni taqsimlash jadvali bilan qulay ishslash va izlashni amalga oshirish uchun vositalar to'plamidan iborat.

Foydalanuvchilar tomonidan radiochastota polosalari/nominallarini izlashni amalga oshirish uchun shartlar beriladi, izlash natijalari ekranda aks etadi.

Xizmat ko'rsatishning huquqiy asosi

O'zbekiston Respublikasining "Radiochastota spektri to'g'risida" 1998-yil 25-dekabrdagi 725-I-son Qonuni;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 22-oktabrdagi «Radiochastota spektrini boshqarishni tashkil qilish va foydalanishni takomillashtirish to'g'risida» PQ-2053-son qarori.

Xizmat narxi va to'lov tartibi

Ma'lumotlar olish bepul amalga oshiriladi.

Xizmat ko'rsatish muddatlari

Ma'lumot so'rov yuborilgan zahoti taqdim etiladi.

Natijani olish usullari

O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi veb-sahifasi <http://mitc.uz> tegishli betlari orqali yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali <http://my.gov.uz> orqali.

Xizmat ko'rsatish natijasi

O'zbekiston Respublikasi hududida va/yoki Xalqaro aloqa ittifoqining 1-rayonida radiochastota polosalari/nominallarining taqsimlanishi, radiochastota polosalaridan/nominallaridan foydalanishning umumiyligini qabul qilingan shartlari bilan tanishib chiqish.

Rad etish sabablari

Mavjud emas.

Shikoyat qilish tartibi

Buyurtmachi sifatsiz xizmat ko'rsatilgani yuzasidan Radiochastota spektridan foydalanishni tartibga solish bo'limiga yoki O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi rahbariyatiga shikoyat qilish huquqiga ega.